

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING BOG‘LANGAN NUTQ KAMCHILIKLARINI BARTARAF ETISH

**Maxramova Gulchexra Maxsudbek qizi**

Andijon davlat universiteti qoshidagi

Andijon davlar pedagogika instituti Magistranti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning bog‘langan nutqidagi nuqsonlarni topishmoqlar asosida bartaraf etish yo‘llari haqida fikr mulohazalar, hamda maktabgacha yoshdagi bolalarga yosh xususiyatlariga mos topishmoqlar tanlash kerakligi haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** topishmoq, bog‘langan nutq, jumboqli savollar, so‘z boyligini kengaytirish, mantiqiy fikrlash.

Insoniyat yaralibdiki u dunyodagi barcha jonzodlardan o‘zining aql-zakovati, idroki, so‘zlash qobilyatining mavjudligi, o‘z nutqi orqali o‘zaro bir - birlari bilan aloqa bog‘lay olish hususiyatiga ega. Tovushlar ma’lum bir tartibda birlashib, bir - biri bilan bog‘langan holda ma’noli, tushunarli nutq hosil bo‘ladi. Nuqning hosil bo‘lishi murakkab funksional jarayonni talab qiladi, bu jarayonda inson organizmining nutq a’zolari faol ishtirok etadi. Buning asosida esa muloqotning ma’noli va o‘rinli qo‘llanilishi yuzaga keladi. Muloqotning rivojlanish jarayoni uzoq ijtimoiy tarixga borib taqaladi, hozirgi kunda tug‘ilib nutqi endi rivojlanayotgan bolalar tomonidan o‘z ona tilini nisbatan qisqa muddatda o‘zlashtirib, jadal rivojlanib borayotganligining guvohi bo‘lmoqdamiz. Nutqning rivojlanib, shakllanib borishi bilan barobarda bolaning fikrlash qobilyati, ongi va tafakkuri ham mutanosib tarzda o‘sibboradi.

So‘zning ma’no - mohiyati bolaning nutq va tafakkur birligini o‘zida namoyon etadi, bu holatda so‘zlearning o‘zaro bog‘lanishi natijasida so‘zning ma’no - mohiyati ochib beriladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda uchraydigan bog‘lanishli nutqda yuzaga keladigan kamchiliklar bu bolalarning so‘zlashuvildagi fikrni ifoda etish ma’no - mohiyatini tushuntirishdagi bir qator kamchiliklarni va qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib nutqni biz ikki xil ichki va tashqi shaklga ajratadigan bo‘lsak, tashqi nutqqa o‘zaki va yozma nutq misol bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan bog‘langan nutq kamchiliklarida mana shu yozma va og‘zaki nutqdagi jumlalarning o‘zaro bog‘lanish hususiyatlari yo‘qolganligi, so‘zlar alohida talaffuz qilinib bir-biri bilan bog‘lanishlikda uzulishlar ro‘y beradi va natijada

jumla ma’no jihatdan tushunarsizlik haolatiga keladi, ya’ni bola aynan nima haqida gapirayotgani va uning maqsadi atrofdagilar uchun tushunarsiz holga kelib qoladi. Bunday holatlarda bolalar albatta kattalarning jumladan ota-onasiga, tarbiyachi va logopedning ko‘magiga muhtoj bo‘ladilar, chunki nutqda uchraydigan bu kabi kamchiliklar o‘z - o‘zidan bartaraf bo‘lishi qiyin jarayondir. Demak bolaning nutqi allaqachon shakllanib bo‘lgan, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni allaqachon o‘zlashtirib olgan, lekin ba’zi gaplarda bog‘lanishlik muammolari yuzaga kelishi mumkin.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning o‘z tengdoshlari qatorida ravon va ma’noli gapirishlari uchun ular uddalay oladigan, yoki kattalarning ozroq ko‘maklari bilan topshiriqlarni bajartirish maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda, yani maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning bog‘langan nutqini korreksiya qilishda topishmoqlar, jumboqli savollardan foydalanish o‘zining samarasini ko‘rsatadi.

Bolaning umumiyligi rivojlanishi qanchalik yuqori bo‘lsa, uning og‘zaki nutqi shunchalik yaxshi rivojlangan bo‘ladi. Nutqning umumiyligi tushunchasini ifodalab uning funksional yo‘nalgan bo‘lib, nutq fikrlar almashishga, o‘zaro tushunishni amalga oshirishga hizmat qiladi. Nutqning sifat o‘zgarishlari, tafakkurning rivojlanishi, xususan, ko‘rgazmali amaliy tafakkurdan mulohaza yurituvchi, mantiqiy tafakkurga o‘tish bilan bog‘lanadi.

Hozirgi pedagoglar, psixologlar, lingvistlar ilk bo‘g‘in – maktabgacha ta’limda bolaning ravon bog‘lanishli nutqini o‘sirish zarurligini ta’kidlaydilar, chunki maktabgacha yoshidagi bolaning matabda muvaffaqiyatli o‘qishi uning og‘zaki nutqi rivojlanganligi hamda umumiyligi rivojlanganligi bilan bog‘liq. Maktabgacha katta yoshidagi bolalar lug‘at boyligini ilmiy – metodik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular maktabga kirish vaqtida amalda tilning grammatik va sintaktik shakllari tizimini egallagan bo‘lishlariga qaramay, ularning nutqi yetuk bo‘lmaydi. Bola lug‘at zahirasining kambag‘alligi faqatgina uning faol nutqida ko‘pgina leksik - grammatic kategoriylar yo‘qligidan emas, balki so‘zlarni noto‘g‘ri qo‘llash, ularning turli ma’nolarini hamda ko‘chma ma’nolarini noto‘g‘ri tushunishdan iborat.

Bizning maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, bolalar uchun atrof - muhittdagi mavhum tushunchalar, masalan, yil, oy nima ekanligi kabi haqidagi topishmoqlarni topish qiyinlik qiladi. Eng murakkabi kinoya topishmoqlar hisoblanadi. Ular topishmoqning asl mohiyatini tushunmaganligi sababli noto‘g‘ri javob beradilar. Topishmoqning faqat tashqi, yaqqol jihatini idrok qiladilar, ko‘chma ma’nolarini ko‘ra bilmaydilar, badiiy obrazni his qilmaydilar, qochirimlarini tushunmaydilar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak topishmoqlardan, xalq og‘zaki ijodidan foydalanish asosida bolalar og‘zaki nutqini rivojlantiramiz, fikrlash doirasini

kengaytiramiz, topqirlikka o‘rgatamiz, bog‘langan nutqini o‘sirimiz, bundan tashqari topishmoqlardan foydalangan holda nafaqat topishmoqning javobini topishga undash mumkin, balki ushbu faoliyat orasida boshqa ko‘rsatmalar va savollar berish ham mumkin. Masalan topishmoqning javobin aynan qaysi belgi yoki ishorga qarab bilib olding?

So‘zni bo‘ginlarga ajratib aytib ber. So‘zdagi mana bu tovushni alohida talaffuz qilib ko‘r... kabi, ammo savol va topshiriqlar berish mobaynida bolani ortiqcha zo‘riqtirmay erishilgan ozgina natijadan ham mamnunlikni bolaga his ettira bilishimiz lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Sh.Shodmonova, «Maktabgacha ta’lim pedagogikasi» Toshkent-2003.
2. F.R.Qodirova «Nutq o‘sirish metodikasi» O‘UM T.;2012y. (electron)
3. Q.Shodiyeva ”Maktabgacha yoshdagi bolalarni to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish” T:, - “O‘qituvchi” 1995y.